

ABULG'OZIY BAHODIRXONNING "SHAJARAYI TURK" ASARIDAN OLGAN TAASSUROTULARIM.

*O'zbekiston tuman 2-son politexnikum
tarix fani o'qituvchisi Salaydinova
Dilafruxxon Dilshodjon qizi*

Annotatsiya

Yirik tarixchi olim, Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxonning tarix faniga qo'shgan ulkan hissasi, "Shajarayi Turk" asari, o'n uch yoshida taxtga chiqishi va davlatni adolatli yo'l bilan oqilona boshqaruvi, turkiy xalqlar shajarasining yaratuvchilaridan biri.

Annotation

A great historian and scientist, Khan of Hxiva's great contribution to the science of history. The work "Shajarayi Turk. He ascended the throne at the age of thirteen and managed the state in a fair way. he is one of the creators of the family tree of Turkish peoples.

Аннотация

Великий историк и учийный бхивинский хан внёс большой вклад в историческую науку Шаджарайи Тюрк. Он возшел на престол в тринадцатилетнем возрасте и справедливо управлял государством. Он является одним из создателей генеалогического древа тюркских народов.

Tayanch tushuncha va iboralar: shajara, turk, mo'g'ul, qo'lyozma, bitik, chig'atoy.

"Shajarayi Turk" asari o'zbek xalqi tarixi uchun va o'tmishi haqidagi muhim asarlardan biridir. „Shajarai turk va mo'g'ul“ ([tarjimasi](#): „Turkiy xalqlar va mo'g'ullar shajarasi“) – tarixiy asar, muallifi [Abulg'oziy Bahodirxon](#). Abulg'oziy Bahodirxon shox naslidan bo'lishiga qaramay, yirik tarixchi olim sifatida ham e'tiborga sazovor. Mashhur adib, tarixchi olim va davlat arbobi, turkiy xalqlar shajarasining yaratuvchilaridan biri. Abulg'oziy Bahodirxon Xiva xoni Arabmuhammad oilasida 1603-yil 23-avgustda dunyoga kelgan. O'n uch yoshidan boshlab, toj-taxt uchun kurashlarda ishtirok etgan. Abulg'oziy 1644-yilda [Xorazm](#) taxtini egallaydi, 20 yil davomida hukmronlik qiladi, 1664-yil aprelda vafot etadi. „Shajarayi turk“ omma tushunadigan rasm va ommabop usulda yozilganligi bilan ajralib turadi. Hodisalar bayonidagi ixchamlik, ifodaning izchilligi, voqealarni latifa va rivoyat uslubida ram, ravon tasvirlash asarning muhim tomoni hisoblanadi. Manba rammatik qurilishi, lug'at tarkibi nuqtai nazaridan xalq so'zlashuv tiliga yaqin turadi. Abulg'oziyxon „Shajarayi turk“ni yozishda ilgari bitilgan bir nechta tarixiy asarlar, xususan, Rashiduddinning „Jome' ut-tavorix“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Muqaddimayi Zafarnoma“sidan

kerakli o'rinlarda unumli foydalangan. Mazkur asar rus, fransuz va nemis tillarida nashr etilgan. Abulg'ozining „[Shajarayi tarokima](#)“ va „[Shajarayi turk](#)“ nomli tarixiy asari hamda „[Manofe'ul-inson](#)“ nomli tibbiyotga oid risolasi bizgacha yetib kelgan. „[Manofe'ul-inson](#)“da 120 dan ortiq xastalik, uni davolash haqida ma'lumot berilgan. Abulg'oziy Bahodirxon „[Shajarayi turk](#)“ nomli asarini qaysi vaqtda yozilganligini va boblarini ko'rsatib o'tadi. „Tarix hijriy ming taqi yetmish to'rt (1074/1663 yoki 1664-yil) erdikim, biz (Abdulg'oziyxon q.m.) Bu kitobni ibtido qilduq va taqi „[Shajarayi turk](#)“ teb ot qo'ydiq. Taqi to'qqiz bob qilduq“. Abulg'oziy Bahodirxon „[Shajarayi turk](#)“ asarining o'zida keltirilgan ba'zi ma'lumotlarga qaraganda oxirigacha yozib tamomlashga ulgurmagan. Uning ma'lum qismi Abulg'oziy Bahodirxon vafotidan so'ng Mahmudiy ibn Muhammad Zamon Urganjiy tomonidan yozib tamomlangan „[Shajarayi tarokima](#)“ (1661-yil) turkman xalqi ajdodlari, „[Shajarayi turk](#)“ (1663-1964-yillar) o'zbek urug'lari haqida yozilgan. „[Shajarayi turk](#)“ to'qqiz bobdan iborat. Tarixiy voqealar badiiy bo'yoqlar, hayotiy lavhalar orqali tasvirlangan. Asar sharq, rus va g'arb olimlarining ham e'tiborini tortgan. „[Shajarayi turk](#)“ va „[Shajarayi tarokima](#)“ asarlari turkman, tojik, o'zbek, mo'g'ul xalqlari tarixini yoritishda tayanch manbalardandir. B.Ahmedov, Q.Munirov, K.Yusupov, Ya. G'ulomov, M.Yo'ldoshev kabi olimlar Abulg'oziy ma'lumotlaridan keng foydalanishgan. A. N. Kononov, A. M. Shcherbak, S. I. Ivanov kabi tilshunos olimlar Abulg'oziy asarlariga suyanishgan. O.Sharafiddinov, M.Yunusov, V.Abdullaevlar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishgan.

XIX va XX asrlarda «[Shajarayi turk](#)» ning ko'plab tahliliy tarjimalari nashr etilgan bo'lib, zamonaviy olimlar uchun tarixiy manba bo'lib xizmat qilgan. Professional olimlar tomonidan amalga oshirilgan birinchi tahliliy tarjima 1825-yilda [Qozonda](#) nashr etilgan. Qozonda nashr etilgan matnning turkcha tarjimasi filolog [Ahmad Vefik Posho](#) tomonidan amalga oshirilgan va dastlab 1864-yilda nashr etilgan. Qozonda bir necha marta nashr etilgan (Rumyantsev nashri, 1825-yil; Sablukov nashri, 1854-yil.; Demezov nashri, 1871-yil) T. N. Demezov asarni fransuz tiliga tarjima (1871-yil) qilgan. Asar fransuz, ingliz xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning „[Shajarayi tarokima](#)“ va „[Shajarayi turk](#)“ [asarlari O'zbekiston](#), umuman [O'rta Osiyo](#) tarixiga oid qimmatli [manbalardan](#) hisoblanadi. Abulg'oziy Bahodirxon asarlarining O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik rammatik fondida bir qancha qo'lyozma nusxalari mavjud (inv. № 7668, 1223, 4017). „[Shajarayi turk](#)“ omma tushunadigan ramm va ommabop usulda yozilganligi bilan ajralib turadi. Hodisalar bayonidagi ixchamlilik, ifodaning izchilligi, voqealarni latifa va rivoyat uslubida ram, ravon tasvirlash asarning muhim tomoni hisoblanadi. Manba rammatik qurilishi, lug'at tarkibi nuqtai nazaridan xalq so'zlashuv tiliga yaqin turadi. Abulg'oziyxon „[Shajarayi turk](#)“ni yozishda ilgari bitilgan bir nechta tarixiy asarlar, xususan, Rashiduddin „[Jome' ut tavorix](#)“, Sharafuddin Ali Yazdiyning

„Muqaddimayi Zafarnoma“sidan kerakli o‘rinlarda unumli foydalangan. Mazkur asar rus, fransuz va nemis tillarida nashr etilgan. [Nikita Bichurin](#) birinchi bo‘lib turk xalqining ram ajdodi O‘g‘uz-kogonning tarjimai holi bilan ajoyib o‘xshashlik borligini payqadi. Xitoy manbalarida bu [modundir](#) (ota va o‘g‘il o‘rtasidagi nizo va birinchisining o‘ldirilishi, istilolarning yo‘nalishi va ketma-ketligi va boshqalar). Boshqa olimlar tomonidan tasdiqlangan bu kuzatish ilmiy adabiyotlarda Modun nomini O‘g‘uz-kogonning ram shaxsi bilan bog‘laydi^[2]. O‘xshashlik yanada hayratlanarli, chunki u yozilgan vaqtda Sharq yoki G‘arb tillariga tarjima qilingan Xitoy yilnomalari yo‘q edi, Abulg‘oziy esa Sharqiy Xunlar yoki Modunlarni bilmagan bo‘lishi mumkin edi.

“Shajarayi turk” ning adabiy ahamiyati shundaki, Abu al-G‘oziy chag‘atoy adabiy tiliga forsiy ta’siri kuchli bo‘lgani uchun ochiqchasiga qarshi chiqdi. Abulg‘oziy tili Xiva o‘zbeklarining oson va ram xalq tili bo‘lib, adabiy chag‘atoy tilidan keskin farq qiladi. Abulg‘oziy uslubi, kompozitsiyalarining ilmiy xususiyatiga qaramay, ravshanligi va lug‘at boyligi bilan ajralib turadi. U o‘zbek xalq iboralari va maqollari bilan aralashib ketgan. Abulg‘ozixon o‘zining «Shajarayi turk» asarida Xiva xonlarining tashqi siyosati, hamda chet davlatlar bilan aloqalari haqidagi muhim ma’lumotlarni bayon etadi.

Asarda tashqi siyosatda Eron bilan munosabatlar ko‘p o‘rinlarda eslatiladi. Unda shoh Ismoil vafotidan so‘ng Xiva-Eron munosabatlari nisbatan yaxshilanganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Buchg‘axon hukmronligi davrida shoh Tahmaspning xonlikka elchi yuborganligi haqida berilgan ma’lumot diqqatga sazovor: “Men xong‘a o‘g‘ul bo‘layin deytururman. Temurbiy chingizxon avlodina kuyov bo‘ldi ersa, hanuzgacha ani temur ko‘ragan deytururlar. Men ham chingizxon avlodina ko‘ragan bo‘lmoqni ko‘nglim izlay turur. To xunkordek ulug‘ dushmanim aytqay kim shoh tahmosib o‘zbek podshohining qizin oldi; yaxshi yarashdi”. Bundan Eron shohining Buchg‘axon jiyaniga uylanib o‘rtadagi aloqalarni nikoh munosabatlari bilan mustahkamlashga intilishida siyosiy maqsad ko‘zlanganligi, Eron shohining Amir Temurning Chingiziylarga kuyov bo‘lgani kabi Xorazm xoniga kuyov bo‘lmoqchi ekanligi bu davrda Xiva xonligida xon hokimiyati nisbatan mustahkam ekanligi ko‘rinadi.

Dinmuhammadxon davrida vaziyat birmuncha o‘zgaradi. Asarda Abulg‘ozixon «Dinmuhammadxon bir erda farog‘at turqudek kishi ermas erdi. Hamisha qizilboshni chopdi. Ul sababdin Shoh Tahmosib lashkar yubordi» deya qayd etadi. Xiva xoni Hoji Muhammadxon (Hojimxon) davrida Eron saroyi bilan o‘zaro aloqalar va yozishmalar ayniqsa, kuchayib, nisbatan muntazam tus oladi. Bu davrda Xivaning Buxoro xonligi bilan keskinlashgan munosabatlari Xiva-Eron siyosiy aloqalarning mustakamlanishiga xizmat qilgan. Chunki, Abdullaxon II singari kuchli raqibga qarshi kurashda bir tomondan kuchli ittifoqchiga ega bo‘lish, yoki hech bo‘lmaganda, ikki davlat o‘zaro urushayotgan davrda uchinchi davlatning betarafligini ta’minlash zarur edi. XVII asr

boshlarida o'zaro sulolaviy kurashlar Buxoroda bo'lgani singari Xiva xonligida ham avj oldi. Hojimaxondan so'ng taxtga o'tirgan Arab Muhammadxon va uning o'g'illari Elbars va Habash sultonlar o'rtasidagi ziddiyat hokimiyat uchun jiddiy kurashlarga aylanib ketgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, tashqi siyosatda Xiva xonlari Eron shohlari bilan barqaror bo'lmasa-da har qalay doimiy aloqalarni saqlab qolganlar va bunday munosabatlardan o'z navbatida, Eron shohlari ham manfaatdor edilar. Ma'lumki, xonliklar davrida rus davlati bilan ham aloqalar o'rnatilgan edi. Ularning aksariyati, asosan XVII asrning oxiri hamda XVIII asrda amalga oshirilganligiga qaramay, albatta bu davrgacha ham o'rta Osiyo xonliklari va rus davlati o'rtasida o'zaro savdo munosabatlari shakllangan edi. «Shajarayi turk» asarida bunday savdo aloqalari haqida deyarli ma'lumot keltirilmagan. Faqatgina bir o'rinda «Biz dunyog'a kelgan yilining avval bahorinda o'n etti kishi o'rusg'a savdog'a ketar» deyiladi. Biroq bundan Rossiyadan xonlikka qanday mahsulotlar keltirilishi yoki olib borilishini tushunish qiyin.

Buxoro xonligi bilan munosabatlarda esa «Shajarayi turk»da asosan urushlarning sabablari, qay tarzda kechganligi, natijalari bayon etiladi. Masalan, Ubaydullaxonning Xivaga yurishiga o'sha davrda Xiva xonligidagi o'zaro ichki kelishmovchiliklar sabab bo'lganligi, Ubaydullaxonning qulay vaziyatdan foydalanib Abulxayrxon o'g'illari Toshkentda Baroqxon, Samarqandda Javonmardxon, Hisordan Mamza Mahdiyning nabiralari bilan ittifoq tuzib yurish qilganligi haqida ma'lumot berilgan. Abdullaxon II ning Xivaga yurish qilishi haqida esa «Abdullaxon ikkinchi kelganining zikri»da yurishning uch sababi sanab o'tiladi. Abulg'oz Bahodirxonning asarida Xiva xonligidagi ijtimoiy hayot, xalqning turmush kechirishi, xonlikdagi soliq tizimi, xonlar faoliyatidagi o'ziga xos ijobiy tomonlar va ba'zi xatolar, o'zaro ichki va tashqi kelishmovchiliklar va urushlar haqidagi ma'lumotlarni batafsil yoritishga harakat qilingan. Tashqi siyosat masalalari yoritilayotganda esa, asosan Xiva xonligining siyosiy va harbiy aloqalari qayd etiladi. Biroq Xiva xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari, tashqi savdo munosabatlari haqidagi ma'lumotlar juda oz. Abulg'ozixon yashagan davrda turli nizolarning ko'payganligi balki muallifni ko'proq siyosiy jihatga e'tibor berishga undagan bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da asarni o'rganish Xiva xonligining tashqi aloqalari haqida yaxshi tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Eski o'zbek tilida yozilgan. „Shajarayi turk“ XIII—XVII-asrlardagi mo'g'ul va turk hukmdorlari haqidagi ma'lumotlarni, xususan, Markaziy Osiyo xonliklari, jumladan, Xiva xonligining muallif yashagan davrgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan. „Shajarayi turk“ Abulg'oziy Bahrdirxonning o'limi tufayli nihoyasiga yetkazilmay qolgan bo'lsada, uning o'g'li Anusha Muhammadxon (1663—1687) topshirig'iga muvofiq, Shajarayi Turkning ishini yakunlashni Mahmud bin Mulla Muhammad Zamon Urganchga topshirdi. U 1665-yilda qurib bitkazilgan. Asarda

islomiy [Odam Ato](#) va turklarning to'ng'ich o'g'li O'g'uzxondan boshlangan turk nasabnomasi sanab o'tilgan va uning avlodlari, jumladan [Chingizxon](#), [Shayboniylar](#) sulolasi haqida afsonaviy ma'lumotlarni taqdim etib, mo'g'ullarning tarixiy tushunchasini yaxshi tasvirlab beradi.

„Shajarayi turk“ning yozilish sababi muallif tomonidan quyidagicha izohlangan: „Ammo bizning otaqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Abdullaxon II) otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur bo'ldi (va) ul sababdin o'zimiz aytduk“. Asar mo'jaz muqaddima va 9 bobdan tashkil topgan. „Shajarayi turk“ning 7, 8 va 9-boblari (1644-yilgacha kechgan voqealar) Abulg'ozixon tomonidan yozilgan. 1, 6-boblar va 9-bobning davomi (1644—1664) Mahmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tarafidan bitilgan. „Shajarayi turk“da ko'plab etnografik hamda Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doyr ma'lumotlar bor. Asarning bizgacha yettidan ortiq qo'lyozma nusxasi yetib kelgan, ular Toshkent, Ashxobod, Sankt-Peterburgdagi fondlarda saqlanmoqda.

„Shajarayi turk“ omma tushunadigan ramm va ommabop usulda yozilganligi bilan ajralib turadi. Hodisalar bayonidagi ixchamlik, ifodaning izchilligi, voqealarni latifa va rivoyat uslubida ram, ravon tasvirlash asarning muhim tomoni hisoblanadi. Manba rammatik qurilishi, lug'at tarkibi nuqtai nazaridan xalq so'zlashuv tiliga yaqin turadi. Abulg'ozixon „Shajarayi turk“ni yozishda ilgari bitilgan bir nechta tarixiy asarlar, xususan, Rashiduddin „Jome' ut tavorix“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Muqaddimayi Zafarnoma“sidan kerakli o'rinlarda unumli foydalangan. Mazkur asar rus, fransuz va nemis tillarida nashr etilgan.

Abulg'oz Bahodirxonning [og'alari](#) Habash sulton va Elbars sulton [otalari Arab Muhammadxonni](#) yengib, uni Qum qal'asiga qamadilar. Otasining tarafdorlari bo'lgan katta og'asi Asfandiyor [Eronga](#), Abulg'oz Bahodirxon esa [Buxoroga Imomqulixon](#) huzuriga qochishdan boshqa iloji qolmagan edi. 1623-yilda akasi [Asfandiyorxon](#) Xiva [taxtini](#) egallagach, Abulg'oz Bahodirxon Urganchga [hokim](#) qilib tayinlandi. Lekin Asfandiyorxon bilan o'rtalarida nizo chiqib, Abulg'oz Bahodirxon 1627-yilda [qozoq xoni](#) Eshimxon huzuriga qochdi; keyin ikki yil [Toshkent](#) hokimi Tur-sunxon bilan birga bo'ldi. Ko'p o'tmay, [turkmanlarning taklifiga](#) binoan u yana [Xorazmga](#) qaytdi. Asfandiyor uni Xiva hokimi qilib tayinlashga majbur bo'ldi. 1629-yilda turkmanlar Eronga tobe bo'lgan [Niso](#) va [Durunni](#) bosib oldilar. Asfandiyorxon Eron bilan munosabatlarning tamoman jiddiylashib ketishidan cho'chib, aybni Abulg'oz Bahodirxonga to'nkadi va uni 1630-yil [qishida](#) Eron [podshohi](#) huzuriga [garov](#) tariqasida yubordi. Abulg'oz Bahodirxon shu tariqa 10 yil Eronda, [Isfahon](#) yaqinidagi Taborak [qal'asida](#) qamoqda yashadi. 1639-yilning [yozida](#) u tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Abulg'oz

Bahodirxon bir necha yil taxt uchun kurash olib borib, nihoyat 1644-yil Xiva taxtiga o'tirdi. Abulg'ozii Bahodirxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash olib bordi. U 1663-yilda hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar,

1. Abug'oziiy. Shajarayi turk. T.: «Cho'lpon», 1992. – 128 b.
2. Abug'oziiy. Shajarayi turk...-140 b.
3. Allaeva N.A. Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar. Tarix fan. Nom. Diss. T.: 2007
4. Abug'oziiy. Shajarayi turk ... -171 b.
5. Abug'oziiy. Shajarayi turk ... 167 b.

*O'zbekiston tuman 2-son politexnikumi
tarix fani o'qituvchisi
Salaydinova Dilafruzxon*